

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA XORIJIY INVESTORLARNI JALB QILISH VA
INVESTITSİYALARNI BOSHQARISH USULLARI**

**METHODS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTORS TO THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
AND MANAGING INVESTMENTS**

**МЕТОДЫ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕТОРОВ В РЕСПУБЛИКУ
УЗБЕКИСТАН И УПРАВЛЕНИЕ ИНВЕСТИЦИЯМИ**

Axmadova Malika Farxod qizi,

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti, Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 3-
bosqich talabasi,

+998997902638, akhmadovamalika2309@gmail.com

D.R. Akabirxodjayeva

Ilmiy rahbar: JIDU dotsenti,

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7654722>

Annotatsiya: Xalqaro investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini va undagi xorij tajribasini AQSH miqyosida o'rganish orqali O'zbekiston Respublikasiga xalqaro investorlarni jalb qilish va investitsiyalarni boshqarish usullarining nazariy-huquqiy asoslarini tadqiq qilish hamda muammolarni hal etish yuzasidan amaliy taklif-tavsiyalar ishlab chiqariladi.

Abstract: By studying the economic content of international investments and the foreign experience in it at the level of the USA, practical proposals are made for the research of the theoretical and legal bases of the methods of attracting international investors and investment management to the Republic of Uzbekistan, as well as for solving the problems.

Аннотация: Путем изучения экономического содержания международных инвестиций и зарубежного опыта США вносятся практические предложения по исследованию теоретико-правовых основ методов привлечения международных инвесторов и управления инвестициями в Республику Узбекистан.

Kalit so'zlar: investitsiya, moliyaviy investitsiya, moddiy investitsiyalar, intellektual investitsiya, investitsion siyosat, portfel investitsiyasi, depozit sertifikatlar, asosiy kapital, aylanma kapital, bank depozitlari, reinvestitsiyalar, soliq stavkalari, amortizatsiya.

Key words: investment, financial investment, material investments, intellectual investment, investment policy, portfolio investment, deposit certificates, fixed capital, working capital, bank deposits, reinvestment, tax rates, depreciation.

Ключевые слова: инвестиция, финансовые вложения, материальные вложения, интеллектуальные инвестиции, инвестиционная политика, портфельные инвестиции, депозитные сертификаты, основной капитал, оборотный капитал, банковские депозиты, реинвестирование, налоговые ставки, амортизационные отчисления.

Investitsiyaga doir ilmiy maqolamning asosiy ilmiy yangiliklariga investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish usullarining iqtisodiy mazmun-mohiyati ochib berilishi, boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari yoritib berilishi, investitsiyalarni boshqarishning xorij tajribasi o'rganilishi va boshqarish usullaridagi muammolar ochib berilishi hamda takomillashtirilishi yuzasidan amaliy asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiqarish kiradi. Ilmiy maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi orqali investitsiyalarni jalb qilishda jahon tajribasini o'rganish yo'li orqali investitsiya faoliyatini takomillashtirish yo'llarini izlab topishdan iborat. Xalqaro investorlarni jalb qilish va yurtimizdagi investitsiyalarni boshqarish yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar olib borgan ko'plab xorijlik iqtisodchi-olimlarni keltirish mumkin. Masalan, Bocharov V.V, Berens V, Xavranek P.M, Katasonov V.Y, Kuznetsov B.T, Muxar I.F.lar ilmiy-tadqiqotlarini olib borganlar va ko'plab asarlar yaratganlar. Investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishning nazariy asoslari, uni tashkil etish, moliyalashtirishning milliy xususiyatlari hamda amaliyotiga oid masalalar mamlakatimiz iqtisodchi-olimlari F.Matmurodov, N. Maxmudov, Sh.Majidov, N.Haydarov, A.Uzoqov, R.Saidov, M.Sultanov, A.Juraev, B.Mamatov, Sh.Ergasheva, N.Karimov, E.Nosirovlarning ilmiy ishlarida

yoritilgan. Tadqiqot jarayonida statistik, analitik, kuzatuv, induktiv, deduktik, mantiqiy, monitoring va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi.

Davlatga investitsiyalarini jalb qilish va boshqarishga bo'lgan yondashuvlar nazariyasini tahlil qilgan holda ayta olamizki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, yurtimizda investitsiya sohasiga alohida e'tibor berila boshlandi[3]. Ayni damda investitsion faoliyatning yo'lga qo'yilishida davlatimiz olib borayotgan oqilona investitsiya siyosatining natijalaridan biri yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek, 2016-yilga mo'ljallangan "Investitsiya" dasturining hayotga tatbiq etilishi juda muhim o'rin tutdi. Sababi shundaki, bu dastur sanoatda va butun iqtisodiyotimizda keskin o'zgarishlarning eng muhim vositasi bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qayta tahrirdagi qonunida "Investitsiya - iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritilgan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqdir" deb investitsiya tushunchasiga ta'rif berib o'tilgan. "Investitsiya" atamasi lotin tilidagi «invest» so'zidan kelib chiqqan bo'lib «qo'yish», «mablag'ni safarbar etish», «kapital qo'yilmasi» ma'nolarini anglatadi[6]. Boshqa so'z bilan aytganda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur.

Xorijiy mamlakatlarning tajribasi va investitsiya to'g'risida o'zimizda qabul qilingan qonunlarning tahlilidan kelib chiqib, investitsiyaning shartli ravishda uchta turini ajratish mumkin:

- moliyaviy investitsiyalar
- moddiy investitsiyalar;
- aqliy (intellektual) investitsiyalar[1].

Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar kiradi. Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktivlari va passivlari kiradi.

Intellectual investitsiyalar mulkiy shuquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat. Investitsiyaning iqtisodiy mohiyati deb, asosiy va aylanma kapital orqali korxonani tashkil etish, rekonstruksiya yoki texnik qayta ta'mitlashga sarflash, moliyaviy investitsiya bo'yicha investorni moliyaviy kapitalini oshirish maqsadida uning instrumentlaridan foydalanib, mablag'larni aksiya, obligatsiya, bank depozitlariga va boshqa qimmatli qog'ozlarga qo'yishdir. Investitsiya keng ma'noda yuritilib, bu investitsion jarayondagi hudud, region yoki mamlakatdagi moliya tizimini evolyusion jarayonining hozirgi holati bilan izohlanadi[10]. Investitsiya atamasi Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida fond bozorlariga ko'proq e'tibor qaratilib, investitsiyalash qimmatli qog'ozlar yordamida amalga oshiriladi degan tushunchalar mavjud. Boshqacha so'z bilan aytilganda portfel investitsiyasi atamasi bilan yuritiladi.

Investitsiyalarni jalb etishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Ijtimoiy omillar:

- xususiy mulk va xorijiy investitsiyalarga bo'lgan mahalliy aholining munosabati;
- ishchilarning ijtimoiy faolligi;
- jamiyatdagi demokratik ongning yaxlitilik darajasi;
- umuman barcha qatlamdagi aholining intellektual salohiyati;
- jamiyatni ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha ilg'or g'oyalarning mavjud ekanligi;

2. Iqtisodiy omillar:

- iqtisodiyotning umumiy va barqaror holati;
- inflyatsiya darajasining bir maromda bo'lishi;
- kredit hajmi va uning foiz stavkasi;
- iqtisodiy faol va faol bo'lmagan ishchi kuchidan foydalanish tartibi;
- valyuta kursining belgilangan me'yorda saqlanib turishi;
- ma'lum bir mahsulot yoki xizmat turiga nisbatan ichki va tashqi bozordagi talab hamda taklif o'rtasidagi munosabat;
- soliq imtiyozlarini yengillashtirish imkoniyatlari;
- bojxonadagi imtiyozlar.

3. Siyosiy omillar:

- siyosiy barqarorlik, ya'ni har bir mamlakatda hukm surayotgan tinchlilik va osoyishtalik darajasi;
- xalqaro kelishuvlarga rioya qilish va ularga amal qilish darajasi;
- davlatning iqtisodiyotda tutayotgan o'рни;
- davlat organlarining samarali faoliyat olib borayotganlik darajasi;
- investitsiyalarga nisbatan davlatning investitsion siyosati;
- davlatning turli xalqaro birjalarda ishtirok etishi va bitimlarga ega bo'lishlilik darajasi[4].

Milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishda me'yoriy-huquqiy asoslar muhim o'rin tutadi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarini takomillashtirish davlat tomonidan olib boriladigan ichki moliya siyosati bilan o'zaro bog'liq jarayon hisoblanadi. Moliyaviy resurslarni taqsimlash, qayta taqsimlash hamda u yoki bu soha uchun sarflash yoki jamg'arish respublikamizda qabul qilingan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan taqsimot tizimi bilan uzviy bog'liqdir. Investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarish uchun eng avvalo ularning qonunda tasdiqlangan ma'no, shakl, mazmun va mohiyatini tushunib olish zarur. Buning uchun O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni me'yoriy-huquqiy hujjat sifatida muhim rol tutadi[2]. Hujjatga ko'ra, investitsiyalar — qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga bo'lgan huquqlar, intellektual mulkka bolgan huquqlar va reinvestitsiyalardir.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- investitsiyalarni jalb qilish va boshqarishning qonunchilik asosini takomillashtirish;
- soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo'llash va uning yangi shakllarini ishlab chiqish orqali takomillashtirish;
- asosiy fondlarni tezkor su'ratlarda amortizatsiya qilish orqali yangilashni yo'lga qo'yish;
- me'yorlar, qonun-qoidalar va standartlarni belgilash orqali ularga rioya qilinishini ta'minlash;


- monopoliyaga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qo'llash;
- kredit siyosati va narx belgilash siyosatini muntazam ravishda zamon bilan hamnafas holatda o'tkazib borish;
- tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash, yangilarini ishlab chiqib amaliyotga joriy qilish;
- investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilab berish.

Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish tajribasini AQSH miqyosida o'rganish orqali shuni aytish joizki, AQSH rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirganligi sababli, unda investitsion siyosat mustahkam o'rnatilingan. AQSHda mulk dahlsizligi yuqori darajada ta'minlangan, qonunlari va sud tizimi a'lo darajada ishlaydi, davlat yoki boshqa kimdir tadbirkorlikni ma'lum bir shaxsdan olib qo'ysa, yoki qandaydir zarar yetkazsa AQSH o'z qonunlari bilan xalqaro investorlarni himoya qila oladi. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, yakka hokimlikkaga qarshi erkin raqobatga ega muhit yaratish, raqobatni rag'batlantirish va rivojlantirish, tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan korxonalarni qo'llab-quvvatlab turish, samarali va hamma uchun manfaatli bo'ladigan soliq siyosatini yuritishning yo'nalishlarini belgilab olish lozim. Moliya tizimi boshqaruvini asosan davlat nazorat qiladi. Ammo, oxirgi yillarda rivojlangan mamlakatlarda korxonalarning bu tizimini nodavlat korxonalar nazorat qilmoqda. Masalan, AQSHda ixtisoslashtirilgan xalqaro moliyaviy hisob kitoblar standarti bo'yicha FASB (Financial Accounting Standard Board), fond birjalari, xuddi Xalqaro svoplar savdosi assotsiatsiyasiga o'xshagan ISDA (International Swap Dealers Association) misol bo'la oladi. Shuni qayd etish lozimki, qonunlar bilan birga kelishilgan va kelishilmagan tartiblar amalda qo'llanilib, bu mazkur davlat qonunni tartibga solish maqsadida bajarish zarur va barcha uchun majburiydir. AQSH 2021-yilda barcha davlatlar ichida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining eng katta o'sish suratini qayd etdi. Statistika ko'ra to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bo'yicha muvofiqlashtirilgan tadqiqotining so'nggi relizi o'tgan yili AQSh pozitsiyasi 506 milliard dollarga yoki 11,3 foizga oshganini ko'rsatadi. Ma'lumotni taqdim etgan 112 ta davlat uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'rtacha milliy valyutalarda 7,1 foizga oshdi. Dollar hisobiga ko'ra, bu global o'sish ko'rsatkichi AQSh dollarining yaqinda kuchayishi tufayli atigi 2,3 foizni tashkil etadi. Ma'lumotlar shuni

ko'rsatadiki, Amerika Qo'shma Shtatlari hozirda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallab turibdi, Xitoy esa uchinchi o'ringa ko'tarildi.

Top 10 FDI economies

The United States is the top destination of inward foreign direct investment.
(top 10, US\$ billions)



Ushbu diagrammada transchegaraviy moliyaviy oqimlarni va kamida 10 foiz to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita egalik ulushi bilan bir-biriga bog'langan korxonalar o'rtasidagi pozitsiyalarni ko'rsatadi [8]. AQSHda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun eng faol sektorlar quyidagilardan iborat:

- Ishlab chiqarish (1,5 trillion dollar).
- Moliya va sug'urta (538 milliard dollar).
- Ulgurji savdo (425 milliard dollar).
- Bank ishi (132 milliard dollar).
- Axborot texnologiyalari (184 milliard dollar).
- Professional xizmatlar (212 milliard dollar).
- Chakana savdo (88 milliard dollar).
- Ko'chmas mulk (67 milliard dollar).

AQSHda ko'proq xorijiy mablag'larni jalb qila boshlagan tarmoqlarga quyidagilar kiradi:

- Muqobil energiya.
- Iqlim o'zgarishini yumshatish.
- Telekommunikatsiya.
- Transport.
- Sog'liqni saqlash.

AQSHda neft mahsulotlari umumiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning 40% ko'rsatkich bilan ishlab chiqarish sektorida hukmronlik qilishda davom etmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda AQSHda 2012 yildan beri transport uskunolari va elektr jihozlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada kamaydi. Texas IT va elektronika, energetika, sanoat ishlab chiqarish va kimyo sanoatida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning sezilarli o'sishini boshdan kechirdi. Toyota Texas iqtisodiyotiga 3 milliard dollar sarmoya kiritdi. Hozirgi vaqtda AQSHning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarining katta qismi Texas, Kaliforniya va Nyu-Yorkda to'plangan. Texas to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hisobidan moliyalashtiriladigan energiya mahsulotlari bo'yicha mamlakatda yetakchilik qiladi, Nyu-York esa moliyaviy xizmatlar va Kaliforniya axborot texnologiyalari bo'yicha yetakchi hisoblanadi.

AQSHda xorijiy investitsiyalarni tartibga soluvchi asosiy qonunlar va nazorat qiluvchi organlari mavjud. Amerika Qo'shma Shtatlardagi xorijiy investitsiyalarga ta'sir qiluvchi to'rtta federal qonun mavjud:

- 1976 yildagi Xalqaro investitsiyalar va xizmatlar savdosini o'rganish to'g'risidagi qonun. Bu hujjat Prezidentga xalqaro investitsiyalar va AQSH tashqi savdo xizmatlari to'g'risida ma'lumot to'plash hamda Kongress, ijroiya idoralari va keng jamoatchilikka ushbu ma'lumotlar tahlilini taqdim etish vakolatini beradi.

- To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xalqaro moliyaviy ma'lumotlarni yaxshilash to'g'risidagi 1990 yilgi qonun. Bu hujjat Savdo departamentining Iqtisodiy tahlil byurosiga aholini ro'yxatga olish byurosi tomonidan to'plangan ma'lumotlarga kirish imkonini beradi.

- 1978 yildagi qishloq xo'jaligi xorijiy investitsiyalarni oshkor qilish to'g'risidagi qonun.

- 1977 yildagi ichki va xorijiy investitsiyalar to'g'risida ma'lumotni oshkor qilish to'g'risidagi takomillashtirilgan qonun. Bu qonun Qimmatli qog'ozlar va birja komissiyasida ro'yxatdan

o'tgan kompaniyaning qimmatli qog'ozlarining 5% yoki undan ko'prog'iga ega bo'lgan har bir kishidan ma'lum ma'lumotlarni, jumladan, fuqaroligi va yashash joyini oshkor qilishni talab qiladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalarni boshqarishning strategik istiqbolli yo'nalishlarini yaratish, yurtimiz uchun juda muhim hisoblanadi. Investitsiyalarning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash ilmiy asoslangan, investitsiya qarorlarini qabul qilish, investitsiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida ichki va tashqi moliyaviy manbalarni barcha shart-sharoitlarni hisobga olgan holda jalb qilish milliy iqtisodiyotning kelajagini belgilaydi [5]. Shu sababli investitsiyalarning hajmi yildan yilga o'sib bormoqda va mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish uchun katta yordam ko'rsatmoqda [7]. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, mamlakatimiz iqtisodiyotiga bevosita xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishini ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, mablag'larni eng ustuvor yo'nalishlarda hamda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq yo'nalishlarda mujassam qilish Respublikada o'tkazilayotgan investitsiya siyosatining asosiy tamoyillaridir. Shularni inobatga olgan holda iqtisodiyotimizga investitsiyalarni boshqarish bo'yicha usullarni joriy qilish talab etiladi va uni amalga oshirish lozim. Investitsiyalarni boshqarishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish, bu faoliyatni amalga oshirish siyosatiga asoslanadi.

Respublikadagi investitsiyalarni boshqarish strategik yo'nalishlarini ishlab chiqishda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- investitsiyalarni boshqarishning tarmoq bo'yicha aniq yo'nalishlarini belgilash;
- investitsiyalarni boshqarishda hududlar bo'yicha aniq yo'nalishini belgilash.

Davlat darajasida investitsiyalarni boshqarish jarayonining asosiy maqsadi sifatida quyidagilarni ko'rishimiz darkor:

- investitsiyalarni boshqarish bo'yicha qonundagi chora-tadbirlarni ko'rib chiqish;
- moliya, pul-kredit va narxning shakllanishi siyosatlarini amalga oshirish;
- davlat me'yorlari va standartlariga amal qilishni muntazam ravishda nazorat qilib borish;
- monopoliyaga qarshi chora-tadbirlar, davlat mulki obyektlarini xususiyashtirish

hamda investitsion loyihalarni ekspertiza qilishdan iborat bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishga ko'ra ushbu maqolada quyidagi usullarni taklif sifatida ko'rsatib o'tsak bo'ladi: tahliliy usul, iqtisodiy usul, ijtimoiy usul, me'yoriy-huquqiy usul, moliyaviy usul, informatsion usul, integratsion usul, malaka oshirish. Ushbu usullardan foydalanish, ilmiy maqolada yoritib o'tilgan muammolarni tezroq bartaraf etishga yordam beradi [9]. Davlatga xalqaro investorlarni jalb qilish va investitsiyalarni boshqarish usullarini AQSH miqyosida o'rganib, rivojlangan davlatda mulk dahlsizligi a'lo darajada taminlanganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining qonunlari va sud tizimlarini yanada isloh qilib rivojlantirishimiz zarur. Izlanishlarga ko'ra, mamlakatga investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish konsepsiyasining asosida quyidagi muhim yondashuvlar mavjud va davlat ularga alohida e'tibor qaratishi lozim:

- investitsion faoliyatni tanlash jarayoni sifatida ko'rib, investitsion resurslarni jalb qilish hamda investitsiyalash mexanizmini investitsion faoliyatni amalga oshirish maqsadida foydalanish zarur;
- investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish obyektning investitsion jozibadorligini baholash bilan amalga oshirish darkor;
- turli xil tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishning usullari tanlanayotganda investitsiyalash jarayonida ishtirok etayotgan investorning manfaatlari mamlakatning manfaatlariga mos kelishini inobatga olish lozim;
- hukumat tomonidan loyihalarni investitsiyalashda aholi va davlat olinadigan natijalardan manfaatdor bo'lishi shu bilan birga ijtimoiy muammolarni hisobga olishni talab etish o'rinli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Xorijiy investitsiyalar to'g'risida"gi qonun (1998-yil, 30-aprel)
2. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonun (1998-yil, 24-dekabr)
3. Д.А. Ендиновицкий, В.А. Бабушкин, Н.А. Батурина и др. Анализ инвестиционной привлекательности организации: научное издание/ М.: КНОРУС, 2010.- 376 с.
4. Бочаров В.В. Инвестиции: Учебник - 2 - е издании - СПб: —Питер, 2009. -348 с.



5. <https://data.imf.org/?sk=40313609-F037-48C1-84B1-E1F1CE54D6D5>
6. <https://fayllar.org/investitsiya-tushunchasi-investitsiya.html>
7. www.stat.uz
8. <https://www.imf.org/en/Blogs/Articles/2022/12/07/united-states-is-worlds-top-destination-for-foreign-direct-investment>
9. The Only Investment Guide You'll Ever Need - Goodreads, Andrew Tobias, June 14, 2022, 320 pages, ISBN 0063289679, 9780063289673
10. The Investment Trust Handbook 2022, Jonathan Davis, December 14, 2021, 280 pages, ISBN-10 : 0857199668, ISBN-13 : 978-0857199669